

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida Harakatlar strategiyasining ijtimoiy-tarixiy ahamiyati

Социально-историческое значение Стратегии действий в развитии нового Узбекистана

Socio-historical importance of the Strategy of Actions in the development of new Uzbekistan

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta'lim

tashkiloti o'qituvchisi

Oydinova Iroda

Аннотация. Ушбу мақолда О'zbekiston rivojlanish taraqqiyotida Harakatlar strategiyasining tarixiy jihatdan o'ziga xos tarixiy jihatlari ochib berilgan. Xususan, Harakatlar strategiyasining xalqaro maydondagi muhim jarayonlarga ta'siri yoritib berilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekiston orzusi va uning asosida ishlab chiqilgan strategiyada Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz, butun jahon hamjamiyati, uzoq-yaqindagi davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik, tobora globallashib borayotgan bugungi dunyodagi muammolarni birgalikda hal qilish, eng rivojlangan mamlakatlar safiga kirishdek amaliy sa'y-harakatlar keltirib o'tilgan.

Калит со'злар: Yangi O'zbekiston, Harakatlar strategiyasi, “Jamiyatning yangi qiyofasi”, “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” g'oyasi, “O'zbekiston – 2030” strategiyasi.

Абстрактный. В данной статье раскрываются исторически уникальные исторические аспекты стратегии действий в развитии Узбекистана. В частности, подчеркнуто влияние Стратегии действий на важные процессы на международной арене. Также в мечте о Новом Узбекистане и разработанной на ее основе стратегии взаимовыгодное сотрудничество с нашими соседями в Центральной Азии, всем мировым

сообществом, странами дальнего и ближнего зарубежья, практические усилия по совместному решению проблем современного все более глобализированного мира, войти в ряды наиболее развитых стран.

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, Стратегия действий, «Новое лицо общества», идея «От сильного государства к сильному гражданскому обществу», стратегия «Узбекистан – 2030».*

Abstract. *This article reveals the historically unique historical aspects of the strategy of actions in the development of Uzbekistan. In particular, the influence of the Strategy of Actions on important processes in the international arena is highlighted. Also, in the dream of New Uzbekistan and the strategy developed based on it, mutually beneficial cooperation with our neighbors in Central Asia, the entire world community, countries far and near, practical efforts to jointly solve the problems of today's increasingly globalized world, and to enter the ranks of the most developed countries. raised*

Key words: *New Uzbekistan, Action Strategy, «New face of society», «From a strong state to a strong civil society» idea, «Uzbekistan - 2030» strategy.*

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab jamiyatning barcha sohalaridagi o'zgarishlar ijtimoiy taraqqiyotning fundamental asosi sifatida amal qildi. Ayni paytda taraqqiyotning davomiyligini ta'minlashning tizimli dasturini ishlab chiqishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev yozishicha: "O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichi boradagi yondashuvlarni tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda. Xalqimiz hayotining barcha sohaları qatori fuqarolarimizning ongi va dunyoqarashida jiddiy o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. 2017-yil 19-sentyabr kuni bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida mamlakatimiz va xalqimiz hayotini tubdan yangilash, jamiyatimizning yangi, demokratik qiyofasini yaratishga qaratilgan islohotlarni boshlaganimiz xususidagi ma'ruzamdan so'ng bu haqda ko'plab savollar bilan murojaat qila boshlashdi. Ularning orasida "Yangi

O'zbekiston" tushunchasi nimani anglatadi?" "Taraqqiyotning yangi bosqichi qanday xususiyatlarga ega?" "Jamiyatning yangi qiyofasi" deganda nimalar nazarda tutilmoqda?" kabi savollar alohida e'tiborni jalb qiladi"¹.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizni kelgusi yillarda barcha sohalarda salohiyatini oshirish uchun Harakatlar strategiyasini qabul qilinganligini aytish mumkin. Bu strategiyaning qabul qilinishi xalqimizning hayotini yangilash va fuqarolarimizning keng darajadagi salohiyatini ro'yobga chiqarishda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi uchun g'oyaviy asos bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, bir qancha mamlakatlarda fuqarolik jamiyati asoslarini kompleks konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida mustahkamlash jarayonlari kuzatilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yozishicha: "Shu tariqa uzoq o'tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli amaliy harakatlarda o'z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu umidlari bugungi kunda Yangi O'zbekiston tushunchasida jamuljam bo'ldi. Irodasi, shaxdu shiddati buyuk xalqimizning bunday yorug' va teran orzusi jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish uchun yuksak marralarga intilayotgan xalqimizni "Uchinchi Renessans" g'oyasi atrofida yanada jipslashtirmoqda. Bunga butun dunyo guvoh bo'lmoqda. Bu yo'lda ana shunday ulkan tarixiy asoslarga, xalqimizning azmu qaroriga tayanib faoliyat olib borsak, men ishonaman, ko'zlagan maqsadimizga albatta yetamiz.

Eng muhimi, bunday ezgu fikr va intilishlar yon-atrofdagi xalqlar va davlatlarga nisbatan asossiz da'volar yoki o'z qobig'iga o'ralib olishga sabab bo'ladigan proteksionizm va izolyutsionizm tamoyillaridan mutlaqo xolidir. Aksincha, Yangi O'zbekiston orzusi va uning asosida ishlab chiqilgan strategiyada Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz, butun jahon hamjamiyati, uzoq-yaqindagi davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik, tobora globallashib borayotgan bugungi dunyodagi muammolarni birgalikda hal qilish, eng rivojlangan mamlakatlar safiga

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 8.

kirishdek amaliy sa'y-harakatlar mujassam"².

Darhaqiqat, mamlakatimizni rivojlangan davlatlarda mavjud bo'lgan demokratik hayot darajasiga erishishi, yurtimiz tinchligi, Vatani ravnaqi, xalq farovonligini ta'minlaydi. Bu yo'lda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" g'oyasi asosida ko'plab ijobiy natijalarga erishilmoqda. Konstitutsiyamizda siyosiy partiyalar, bir qator ijtimoiy institutlar faoliyati bo'yicha asosiy tashkilotlarning keng shaklda faoliyat yuritishi barcha aholi qatlamlari manfaatlarini rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ham fuqarolik jamiyatining poydevorini mustahkamlash qat'iy va o'zgarmas bosh strategik maqsad sifatida belgilab qo'yilgan. Bu o'z navbatida mamlakatimizni rivojlangan davlatlarda mavjud bo'lgan demokratik hayot darajasiga erishishi, yurtimiz tinchligi, Vatani ravnaqi, xalq farovonligini ta'minlaydi. Bu yo'lda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" g'oyasi asosida ko'plab ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yozishicha: "Bu ezgu maqsadni hayotga to'liq tatbiq etish uchun 2017-2021-yillarda mamlakatii rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini qabul qildik. Uni amalga oshirishda avvalambor, fuqarolarimiz bilan muloqot qildik, bamaslahat ish tutdik, xalqimizning aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyatiga tayandik. Faqat xalqimizning azmu shijoati, kuch-qudrati, metin irodasi, eng muhimi, mustaqil taraqqiyotga bo'lgan komil ishonchi tufayli oldimizda turgan maqsadlarimiz sari dadil qadam ko'ymoqdamiz. Tan olish kerakki, hayotning o'zi va islohotlar shiddati mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlar bilan bir qatorda jamiyat va davlat hayotida yillar davomida yig'ilib qolgan va o'z yechimini kutayotgan tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Bu muammolarni qisqa vaqt ichida yechish uchun o'zimizda iroda, qat'iylik va shijoat topa oldik"³.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, unga xos institutlar faoliyati samarasini

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 19.

³ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 44.

oshirishda O'zbekiston o'zining qat'iy pozitsiyasiga egadir. Mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish O'zbekiston davlatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri "Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi"⁴. So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Shuningdek, 2008-yilning iyul oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi har ikki palatasi kengashlarining "Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵gi Qarori qabul qilindi. Bu hujjat yuqoridagi Oliy Majlis Qarorida belgilab qo'yilgan institutlarining mustaqil rivojlanishini bosqichma-bosqich ta'minlash, mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida ularning roli va ahamiyatini kuchaytirish yo'lida yana bir muhim qadam bo'ldi.

Darhaqiqat, "Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi har ikki palatasi kengashlarining "Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qarori. <https://lex.uz/docs/2947641>.

salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida:

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida quyidagi asosiy g'oyalar aks ettirilgan:

barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;

aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash"⁶ kabi va boshqa bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida: "Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo'lmish Yangi O'zbekistonni barpo etish siyosatini qat'iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz "Inson qadri va manfaatlari uchun" degan ezgu g'oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo'lidan dadil ilgari bormoqda⁷. Biz Asosiy qonunimizda millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, so'z va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqatimizni yana bir bor tasdiqladik. Mana shunday huquqiy asosda "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasini qabul qildik. Bu strategiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga uyg'un bo'lib, biz o'z zimmamizga olgan barcha majburiyatlarni to'la va qat'iy

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2023 strategiyasi" to'g'risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMTning 78-sessiyasidagi nutqi. 21.09.2023. <https://president.uz/oz/lists/view/6677>

bajarmoqdamiz”.

Bugungi kunda yoshlar siyosiy e'tiqodini mustahkamlash, siyosiy madaniyatini shakllantirish, bir so'z bilan aytganda, yetuk, barkamol, komil insonni tarbiyalash zarur bo'ladi. Bu esa o'z navbatida yosh avlodni chuqur bilimli, zukko, teran fikrli qolaversa, o'z o'tmishi durdonaridan va urf – odat an'analaridan xabardor, vatanparvar, halqparvar, fidoiy shaxs etib o'stirishni davrning o'zi taqazo qilmoqda. Zero, milliy istiqlol mafkurasi ham ana shu milliy qadriyatlarimizga asoslanib yaratilgani bejiz emas.

Sharq azaliy shukuhning saqlab qolish – bu milliy merosimizni avlodlar ongiga singdirish bilan bevosita bog'liq jarayondir. Ayniqsa, Sharq falsafasida yosh avlodni odob-axloqi, ta'lim-tarbiyasida milliy qadriyatlar va an'analar ruhida tarbiyalash muhim o'rin tutgan.

Shaxsning o'zligini anglashi, mustahkam e'tiqodiga va fikriga ega bo'lishi, o'z milliy qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalanishi boshqalarni ham hurmat qilishga, butun insoniyat istiqboli oldida ahloqiy mas'uliyatni xis qilishga yordam beradi. Shu bois, yoshlar dunyoqarashida milliy g'oyaga nisbatan mustahkam ishonch ruhini shakllantirish borasida mazkur tadqiqot ishi bevosita iqtisodiyotimizda erishilayotgan yutuqlar, ijtimoiy hayotimizda yuz berayotgan ulkan islohotlarning natijalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 19.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. [https:// lex.uz/uz/docs/-5841063](https://lex.uz/uz/docs/-5841063)

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi har ikki palatasi kengashlarining “Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qo'shma Qarori. [https:// lex.uz/docs/2947641](https://lex.uz/docs/2947641).

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-
www.tadqiqotlar.uz

158-son “O‘zbekiston – 2023 strategiyasi‘ to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMTning 78-sessiyasidagi nutqi. 21.09.2023. <https://president.uz/oz/lists/view/6677>